

O`ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLIY G`OYANI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Bo`tayev Usmonjon Xayrullayevich

*O`zbekiston Milliy universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta`limi kafedrası”
mudiri, siyosiy fanlar doktori, dotsent*

Sharopova Malika Dilshod qizi

*O`zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g`oya ma`naviyat
asoslari va huquq ta`limi yo`nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O`zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g`oyani rivojlantirish uchun qay tartibda ish olib borilishi kerakligi haqida muallif o`z fikrlarini bayon etgan. Yurtimizda barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohotlar O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida o`z munosib o`rnini topishi, xalqining uzoq kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilyotganligi, ayniqsa, biz yoshlar uchun ahamiyatlidir. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-aprel kuni “O`zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g`oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to`g`risida” gi farmoyishi qabul qilinganligi ham milliy g`oyani keng targ`ib qilish uchun yo`l ochilganligidan dalolat beradi.*

Kirish so`zlar: *Millatlararo hamjihatlik, globallashuv, milliy g`oya, jamiyat, mafkuraviy tarbiya, demokratiya, milliy qadriyatlar.*

Dolzarbli: *Tarixga nazar tashlaydigan bo`lsam, dunyodagi barcha rivojlangan davlatlar o`z tiklanish jarayonida xalqning bir maqsad yo`lida birdamligini, ahil – inoqligini va safarbarligini ta`minlashga jiddiy e`tibor qaratgan desam mubolag`a bo`lmaydi. Hozirgi paytda globallashuv davrida dunyo maydonida taraqqiyot shiddat bilan o`zgarib bormoqda. Hamma jabhalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. So`nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohotlar mana shunday muhitda O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida o`z munosib o`rnini topishi, xalqining uzoq kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.*

Bugungi kunda mamlakatimizni taraqqiy ettirish bo`yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda milliy g`oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-aprel kuni “O`zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g`oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to`g`risida”¹ gi farmoyishi qabul qilinganidan buyon o`tgan vaqt davomida bir qator

¹ Milliy istiqlol g`oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent 2001 y

ishlar qilindi. Xususan, taniqli olimlar, ekspertlar, ijodkor ziyolilardan iborat ishchi guruh tomonidan Milliy g'oya konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, oliy, o'rta maxsus, umumiy o'rta ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, adabiyot, san'at, madaniyat yo'nalishida faoliyat olib borayotgan ziyolilar, yoshlar, keng jamoatchilik vakillari "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari, olimlar, mutaxassislar ishtirokida "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan bosh g'oya asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan ko'plab davra suhbatlari o'tkazildi. Bu konsepsiyaning asosini milliy davlatchiligimizning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini yaratishda milliy g'oya bunyodkor manba bo'lib hizmat qilishi, sog'lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g'urur-iftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlari ro'yobga chiqishida beqiyos kuch-qudrat ekanligi tashkil etadi.² O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ko'p millatli xalqimizning yagona milliy g'oyasi dunyo ijobiy tajribasining nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-axloqiy jihatlarini, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalardagi, jumladan shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq muhim yutuqlarini ham o'zida mujassam etadi. Ushbu konsepsiyada mamlakatimizda milliy yuksalish g'oyasi asosida amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar aks etgan. Milliy yuksalish g'oyasi yurtimizda tinchlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlash, demokratik tamoyillarni to'liq qaror toptirish, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va adolat, moddiy va ma'naviy hayotni barobar rivojlantirish kabi tamoyillarni o'zida birlashtiradi.³ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarurligi alohida ta'kidlandi. 2019-yil 8-aprel kuni Prezidentimizning "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi" ni ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi. Bu kosepsiyaning qabul qilinishini zarurati shundan iboratki, rivojlangan mamlakatlarda milliy g'oya davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg'unlashtiradi. "Bir hudud – bir xalq" e'tiqodini shakllantirib, mamlakatlar aholisini birlashtirgani umumiy maqsad yo'lida safarbar

²Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.

³Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz,- T, O'zbekiston 2016.b-11

qilganiga misollar ko'p. Ularning aksarida milliy g'oya milliy qadriyatlarga bog'lab singdirilganini ko'rishimiz mumkin.⁴ Mamlakatimizda milliy g'oyaga yangi davr, millatimiz tarixining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo'yilmoqda. Ilgari milliy g'oyani tushunish va tushuntirishda noqulayliklar uchrab turar edi. Masalan, odamlarning quloqlari milliy g'oya davlat va xalq birligi tarannumini eshitardi. Lekin ko'zlarimiz hokimliklar, vazirlik va idoralarning oldidagi temir panjaralarni ko'rar edi. Xalq davlat organlariga xizmat qilishi kerak, degan noto'g'ri qoida amalda edi. Fuqaro hokimiyatga emin-erkin kirolmas, dardini aytolmas edi. Chunki amalda xalqdan davlatni ajratuvchi temir panjara bor edi. Endi esa o'sha panjaralar yo'q qilindi. Lekin ayrim amaldorlarimiz ongida bu panjara haligacha turibdi. Tafakkurdagi temir panjaralarni qo'porib tashlash qiyin kechyapti. Milliy g'oya ana shunday vaziyat talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda. Ilgari milliy g'oya ijtimoiy-gumanitar, ma'naviy-ma'rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh dasturi, mablag'i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g'oya gumanitar masala bo'lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g'oya ro'yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demokratiya – to'g'rilik, rostlik, adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo'ravondan – o'jizni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g'oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo'lsin, deydi.⁵ Mamlakatda adolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g'oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g'oyani har bir o'zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo'l ochadi. Milliy g'oyamizning bosh g'oyasi "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". Yuksalish – harakatni talab qiladi. Demak, milliy g'oyamiz harakatlar mafkurasi bo'ladi. Milliy g'oya odamlarga islohotlar kim uchun, nima uchunligini, ahamiyatini tushuntiradi. Yotganni – o'tqazadi, o'tirganni – turg'izadi, turganni – yurgizadi, yurganni – yugurishga undaydi. Tushuntiradi. Chunki shularni tushunmagan odamlar birlashmaydi, ko'r-ko'rona, yuzaki ishlaydi. Biri

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi", 2019-yil 8-aprel.

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ni tasdiqladi.

ishlasa, ikkinchisi tomoshabin bo'ladi. Tushunganlar birlashib, ixtiyoriy, zavq bilan ishlaydi. Natijada hayotidan rozi bo'ladi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" va "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari "Ma'naviyat – eng ta'sirchan qurolimizdir", degan qat'iy fikrni bildirdi. Bu – bejiz emas. Ma'naviyat va ma'rifat, mafkuraviy tarbiya O'zbekistonning turli millat, din, kasb, yoshlarga mansub xalqini g'oyaviy qurollantiradi. Islohotlar nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog'lab uqtiradi, ko'rsatadi. Tushungan xalq – g'oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi.⁶ Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish, siyosiy sohani erkinlashtirish, uning qonuniy huquqiy asoslarini va turmushga tadbiiq etishning mukammal mexanizmlarini yaratish bir tomondan, milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ifodasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu asos milliy g'oyalarni xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirish va hayotga joriy etishning imkoniyati hisoblanadi. Shu bois aytish kerakki, mamlakatdagi siyosiy partiyalar, turli diniy konfessiyalar milliy istiqlol g'oyasi asosida kishilarni umumxalq manfaatlari yo'lida mushtarak maqsadlarga safarbar etishlari uchun imkoniyatlari mavjud. Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishni fuqarolik mas'uliyati va burchi ham, unga ishonch va e'tiqodni mustahkam bo'lishini his etishni taqozo etadi. Shundagina u xalqni, millatni birlashtirishga, mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga xizmat qila oladigan muhim vazifani bajaradi. Inson faoliyatida bunyodkorlik yoki tajovuzkorlik kuchini namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday fikr, g'oya, mafkura ham xalqlar taqdiriga bir xil ta'sir etmagan. Ular orasida bunyodkor g'oyalar bilan birga, buzg'unchi va tajovuzkorlari ham bo'lganligi mafkura tarixidan ma'lum. Bu ham turli ijtimoiy kuchlarning «ichki ma'naviy dunyosi» maqsad va muddaolari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos qonuniyatdir. Ularni ham o'rganish, bilish zarur. Bu insonda ezgu g'oyalardan yovuz g'oyalarni farqlay olish qobiliyatini shakllantiradi va g'oyani g'oyadan, mafkurani mafkuradan farqini anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, bugungi globallashuv jarayoni o'tmishda ham, hozir va kelajakda ham milliy g'oyaga bo'lgan zaruratni oshirib boradi. Shuning uchun ham bu dunyo qanchalik ma'rifiy taraqqiyot qonunlariga amal qilmasin, inson qalbi, ongi va ishonchi, e'tiqodini o'zgartirishga bo'lgan harakat, urinish, doimo saqlanib qoladi. Bunday urinish yo'qolgan davrni, inson ongi va qalbini o'z holicha erkin va turli xil «mafkuraviy tazyiqchardan xoli holda rivojlanish deb tasavvur etishni» faqat orzu qilish mumkin. Turli maqsadlar, manfaatlar bor ekan u turli davrlarda, turli xil namoyon bo'lishi tabiiy. Bu qonuniyatlarni fan yo'li bilan o'rganib, oldindan uni bashorat qilish o'ta murakkab jarayondir. Chunki, g'oya va mafkura sohasi ishonch va e'tiqod, dunyoqarash, manfaatlar tizimi bilan bog'liq. Shunga ko'ra, faqat uning

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslangan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat farmoni

o'zgaruvchanligini oldindan aytish mumkin, xolos. Uni xalqning o'zligiga bo'lgan munosabati, o'zligini anglash darajasi, milliy-madaniy merosiga, qadriyatlariga bo'lgan munosabatda har bir avlodga nima berayotgani va nimani meros qilib qoldira olishi bilan bog'liq qonuniyat mujassamlashgan. Shuning uchun ham milliy g'oyani fan sifatida o'rganishni unchalik to'g'ri emas deb hisoblaydiganlar fikriga qo'shilish qiyin. Masalan, inson ongi va tafakkurida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishi bilan uning dunyoqarashida mustaqil fikrdan ko'ra mutelik qaramlik g'oyalari ustuvor bo'la boshlaydi. Demak uni ko'proq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj zaruriyatini anglash tuyg'usini dalillovchi omillar, uni uzluksiz, doimiy, tadrijiy ravishda hamma vaqt, alohida e'tibor beradigan, qolaversa, har bir xalq yoki millatning, mamlakat yohud davlatning ertangi istiqboli, dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishi, o'zligini saqlab qolishga bo'lgan ehtiyojning hayotiy falsafasidir. Milliy g'oyada o'zligini saqlab qolish maqsadi dunyodan ajralib yashashni, faqat o'z qobigiga o'ralib qolishini bildirmaydi. Aksincha, dunyo bilan hamnafas bo'lishga undaydi. Faqat milliy ma'naviy qadriyatlariga, merosiga tayangan holda unga hurmat bilan qarashga, o'z milliy ma'naviy negizlariga tayanib, undan uzilmaslikni o'rgatadi. Chunki undan begonalashish, milliy o'zligidan uzoqlashtiradi, tarixidan, qadriyatlaridan ayri holda rivojlanishga sabab bo'ladi. Bu milliy taraqqiyot qonuniyatiga va manfaatlar uyg'unligiga ham mos kelmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent 2001 y.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz,-T, O'zbekiston 2016.b-11
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi", 2019-yil 8-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ni tasdiqladi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslangan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat farmoni.